

QASHQADARYO VOHASINING SO‘NGGI O‘RTA ASRLARGA OID ETNIK TARKIBI

G‘ofurova Sobira

Qarshi Davlat Universiteti magistratura

bo‘lim 1- bosqich talabasi.

sobiragafurova14@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasining bu davrga oid etnik tarixi, shaharlari va qishloqlari aholisi aniq tadqiqot obyekti sifatida nisbatan kam o‘rganilgan bo‘lib, mahalliy aholining etnik tarkibi va ijtimoiy turmush tarsi bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha umumlashtirilmaganligi tufayli ushbu bo‘limda bu masalalarga ham to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.*

***Tayanch iboralar:** Qashqadaryo, Shahrisabz, Kitob, G‘uzor, aholi, etnik tarkib,*

Ayrim statistik ma’lumotlarda vohada jami 434.494 nafar aholi istiqomat qilishi, shularadn 62.374 nafari shahar aholisi bo‘lib, 14.3 foizini qishloq aholisi 372.120 nafari (77.320 xo‘jalik), ya’ni 85.7 foizini tashkil qillishi qayd etilgan. Qishloq mahallalarida o‘zbeklar 80.7 foizni, tojiklar 11 foizni, arablar 4.7 foizini va boshqa millat vakillari 3.6 foizni; shaharlarda yashovchi aholining 95.5 foizini o‘zbeklar, 0.6 foizini tojiklar, 0.6 foizini arablar, 3.3 foizini mahalliy yahudiylar va 0.5 foizini boshqa millat vakillari tashkil qilgan¹.

O‘zbekiztonda o‘tkazilgan aholi ro‘yhati ma’lumotlarining boshqa birida XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasi aholisining jami soni 219.111 nafar deb ko‘rsatilgan. 1. Ularning 13.6 foizi shaharlarda istiqomat qilishi, vohaning umumiyligi yer maydoni 26.001 km ni tashkil qilib, shahar aholisi 1 km ga 8.5 kishi, qishloq aholisi esa 7.3 kishi

¹ O‘zbekistonning rayonlashtirish ishlari uchun materiallar. Loyihasidagi mintaqah va rayonlarning qisqacha ma’lumoti (arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvida). -Samarqand. 1926.-B.222-223

to‘g‘ri kelishi1; voha aholisining 85.1 foizini o‘zbeklar, 9.3 foizini tojiklar, 1.4 foizini arablar, 0.5 foizini yahudiylar tashkil qilishi1 qishloqlarda yashovchi aholining 83.5 foizini o‘zbeklar, 10.7 foizini tojiklar, 1.6 foizini turkmanlar, 0.4 foizini qozoqlar va 3.8 foizi arablardan iborat ekanligi qayd etilgan.

Manbalarda amirlikdagi mavjud shaharlar haqida turli- tuman ma’lumotlar uchraydi. Ulardan shahar aholisining soniga qarab, katta yoki kichik toifalarga ajratilgan. Qashqadaryo vohasidagi aholining soni 50.000 ortiq bo‘lgan shaharlari guruhiga Qarshi va Shahrисabz kiritilgan bo‘lsa, aholisi 5000 dan 15 minggacha bo‘lgan shaharlar sifatida Kitob, Chiroqchi, G‘uzor, Yakkabog‘, G‘uzor, Yakkabog‘ shaharlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Aholini ro‘yhatga olish ma’lumotlarida voha shaharlari aholisining soni va milliy tarkibi quyidagicha aks etgan: jami ro‘yhatdan o‘tgan aholining 39.038 nafari shaharlarda, shulardan 30.360 nafari o‘zbek; 4.102 nafari rus; 823 nafari arab; O‘rta Osiyo yahudiylarining barchasi; 692 nafari Isroil yahudiylari; 587 nafari tatar; 466 nafari ukrain; uyg‘urlarning barchasi; 185 nafari tojik; 11 nafari turkman; 86 nafari arman; 70 nafari lo‘li; 54 nafari fors; nemislarning barchasi; 32 nafari polyak; gruzinlarning barchasi; 23 nafari Moldavan; 17 nafari latish; 16 nafardan belorus, afg‘on; 15 nafar lezgin; 14 nafari boshqird, 8 nafari qirg‘iz, 5 nafari Chuvash, qalmiqlarning barchasi, 3 nafari litvalik, 2 nafardan bolgar, votyak, usmonli turk, hind, 245nafari millati aniq ko‘rsatilmagan aholi; 1 nafardan boshqa millat vakillari: xitoy, rumin, eston, rumin, eston, fin, osetin va turk millatiga mansub aholi istiqomat qilgan¹.

Polkovnik Galkinning bu boradagi tadqiqotlari Shahrисabz vodiysi va Qarshi tekisliklarida 500.000 ga yaqin aholi yashaganligidan dalolat beradi².

Qiyosiy tahlillarga ko‘ra, so‘nngi o‘rta asrlarga oid manbalardagi voha aholisi haqida keltirilgan ma’lumotlarda birmuncha tafovutlarni kuzatish mumkin. Misol uchun, voha shaharlari aholisining sonini o‘rgangan Semyonov-Tyanshanskiy Qarshida taxminan 60.000-70.000, G‘uzorda esa 20.000 ga yaqin, Shahrисabz shahrida

¹ O‘zR MDA. R-1619-jamgarma, 11-ro‘yhat, 53-jild. 25-varaq; Vsesoyuznaya perepis naseliniya 1926 goda.-S.25

² Polk. Galkin. Kratkiy voenno-statisticheskiy ocherk v Buxarskom xanstve.... -S. 13.

30.000 ga yaqin, Kitob shahrida 3000 yaqin kishi, Chiroqchi shahrida 5000 kishi istiqomat qilishini keltirib o‘tgan. Manbalar ma’lumotlari vohada aholi sonining aslida yuqoridagiga nisbatan ko‘pligidan dalolat beradi. Xususan, polkovnik Belyavskiy keltirilgan ma’lumotlarda Shahrisabz bekligi aholisining soni 140.000 ga yetishi, agar bunga Qashqadaryoning yuqori oqimi, Oqsuv, Tanhoz va Qizilsuv daryolari bo‘ylarida joylashgan qishloqlar aholisini ham qo‘shib hisoblasa, ularning soni tahminan 280.000 kishini tashkil etishi aytildi. Ushbu ma’lumotni kapitan Arxipov va kapitan Pokotilolar1 ham tasdiqlaydi¹.

Shahrisabz bekligi aholisining ko‘pchilik qismini o‘zbeklarning kenagas va saroy urug‘lari tashkil qilgan1. Shuningdek, beklikda qirg‘izlar va yahudiyilar ham istiqomat qilishgan. Beklik aholisi asosan dehqonchilik va chorvachalik bilan (qo‘ychilik bilan asosan tog‘ adirlari va yaylovlarda yashovchi aholi) shug‘ullangan.

G‘uzor bekligi aholisi 40.000 ga yaqin hovli va o‘tovlarda istiqomat qilib, bir qismi ko‘chmanchi qirg‘iz-qo‘ng‘irotlar, bir qismi esa o‘troq o‘zbek -qovchin, sart, xo‘ja va tojiklardan iborat bo‘lgan1. Arxiv hujjatlarida G‘uzor shahrining o‘zida 20.000 ga yaqin aholi istiqomat qilishi qayd etilgan1. G‘uzorda razvedka ishlarini olib brogan polkovnik Fedorov kapitan Arxipovning ma’lumotlarini tasdiqlagani holda, beklikda katta yoshdagagi aholi soni 25.000 kishi, kichik yoshdagilar bilan birgalikda jami aholi soni 50.000 kishidan ortiq bo‘lganligini qayd etadi. Shundan 20.000 atrofida, ya’ni aholining 80 foizga yaqini o‘zbeklar, 5.000 atrofida, yoxud 20 foizga yaqin qismini tojiklar tashkil qilgan. Shu bilan birga, G‘uzor shahrida bir necha yahudiy oilalari, 50 nafarga yaqini hindlar, 5 nafar afg‘on va 50 nafar lo‘li istiqomat qilgan. Beklikning umumiyligi maydoni 4.500 kv. verst yoki 90 kv. milni tashkil etib, 1 kv. milga o‘rtacha 280 kishi to‘gri kelgan. Beklik aholisining 22.000 nafarga yaqini Katta O‘ra daryo, 2.000 nafarga yaqin esa G‘uzordaryo bo‘ylarida, ya’ni beklikning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Beklikning ba’zi hududlarida aholi nisbatan zinch

¹ Kap. Arxipov. Voennaya rekognossirovka ravninnoy chasti Buxarskovo xanstva, proizvedennaya v 1883 g. // Sbornik geograficheskix, topograficheskix I statisticheskix materialov po Azii.-SPb: Voennaya tipografiya

joylashgan, xususan, G‘armiston amlokligining umumiy maydoni 3,5 kv. milni tashkil qilib, har kvadrat milga o‘rtacha 550 nafarga yaqin aholi to‘g‘ri kelgan.

Buxoro amirligining yer maydoni va aholisi to‘g‘risidagi ma’lumotlar turlicha bo‘lib, ular XVIII-XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasining etnik tarkibi turli urug‘ va qabila vakillaridan tarkib topganligini ko‘rsatadi. Bu davrda Qarshi shahri va uning atroflarida mang‘it, saroy, qovchin, qatag‘on, qutchi, qipchoq, xitoy, qirq, va boshqa urug‘lar, Shahrisabz va uning atrofida kenagas, saroy, qutchi, turk, qatag‘on, qalmoq, qang‘li, chuyut, qiyot, qo‘ng‘iroq, mojor, mang‘it, mitan, mo‘g‘ul, nayman, sayot urug‘lari, G‘uzor va uning atrofliada qovchin, keroyit, qo‘ng‘iroq, mang‘it va boshqa urug‘lar yashagan. Shahrisabz bekligida XIX asr o‘rtalariad tatarlardan 45 nafar kishi, chig‘atoylardan 75 nafar kishimistiqomat qilgan. Chig‘atoylarning kelib chiqishi chig‘atoy mo‘g‘ullariga borib taqalib, qang‘lilar esa Qashqadaryoning yuqori oqimi bo‘ylab joylashgan.

Qashqadaryo vohasida yashovchi o‘zbek qabilalariga aymoqlar va saidlar ham kiradi. Aymoqlar jami 3.625 kishidan iborat bo‘lib, shundan 3.170 nafari Qarshi vohasida, 455 nafari Yakkabog‘daryoning yuqori oqimida istiqomat qilgan. Saidlarning 95 nafari esa Qashqadaryoning yuqori oqimi bo‘ylab joylashgan.

Tojiklar Shahrisabzga nisbatan Kitob shahrida ko‘pchilikni tashkil qilgan. Chig‘atoy tojiklaridan Qashqadaryo vohasida: Qashqadaryoning yuqori oqimi bo‘ylab 6.125 kishi; Shahrisabz vohasida 250 kishi; Qarshi vohasida 7.280 kishi istiqomat qilgan. Amirlikda Chig‘atoy tojiklari va o‘zlarini tojik deb hisoblovchi, tojik tilida so‘zlashuvchi, ammo o‘zbek qabilalari nomlari bilan ataluvchi etnoslar ham mavjud bo‘lgan.

Qashqadaryo aholisining etnik tarkibi va urbanizatsiya jarayonlarini o‘rganish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

-voha shaharlarida o‘zbek va boshqa elatlarga mansub aholi istiqomat qilib, ziroatchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanib kelgan, aholining ko‘pchilagini (85 foizini) o‘zbeklar tashkil etgan;

-voha aholisining asosiy qismi qishloq aholisidan iborat, bo‘lib, ular tog‘, tog‘ oldi va dashtlarda istiqomat qilishgan. XX asr boshlarida Qashqadaryo aholisining faqat 13.6 foizigina shaharlarda hayot kechirgan

-qishloq tumanlarda yashovchi aholi urug va qabilalar bo‘yicha joylashgan, aholining shahar guzarlarida joylashuvi, etnik tarkibi hamda ijtimoiy mavqeい ularning hunarmandchilik va savdo faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kap. Arxipov. *Voennaya rekognossirovka ravninnoy chasti Buxarskovo xanstva, proizvedennaya v 1883 g. // Sbornik geograficheskix, topograficheskix I statisticheskix materialov po Azii.-SPb: Voennaya tipografiya*
2. Polk. Galkin. *Kratkiy voenno-statisticheskiy ocherk v Buxarskom xanstve.... -S. 13*
3. O‘zR MDA. *R-1619-jamgarma, 11-ro ‘yhat, 53-jild. 25-varaq; Vsesoyuznaya perepis naseliniya 1926 goda.-S.25*